

BUGUNGI KUNDA O'ZBEK TILIDA PAYDO BO'LAYOTGAN IMLO MUAMMOLARI

Ismatova Mahzuna Shavkatovna

Egamova Zaynab O'ktam qizi

SamDChTI Ingliz tili fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz) yo 'nalishi

4-bosqich 2108-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada savodxonlikka zarar yetkazuvchi ba'zi omillar va imloviy xatolarga yo'l qo'yilishining ayrim muhim sabablari haqida mushohada yuritildi. Imloviy xatolarga yo'l qo'ymasdan yozish dolzarb masalalardan biri ekanligi va bu jarayonda jamiyatimizning har bir a'zosining o'z o'rni borligi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Yozma nutq, savodxonlik, imlo, zamonaviy yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar tili.

Yozma nutq. Bu- insoniyatni o'z tarixi bilan bog'lab turadigan eng muhim aloqa vositasidir. Barchamizga ma'lumki, adabiy, ilmiy, badiiy, tarixiy va shu kabi asarlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali olimlarimiz va tarixchilarimiz butun bir o'tmishni jonlantirishadi. Yozma manbalar zamon va makon to'siqlarini yengib o'ta oladigan yagona kuchdir. Aytilgani kabi, yozma nutq insoniyatga o'tmishdan xabar beruvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi. Albatta til so'zlovchi istagini tinglovchiga yetkazib beradigan aloqa vositasidir Ammo bugungi globallashib borayotgan jamiyatimizda, aksariyat yoshlar o'rtasida, „yozma nutq“ atamasi o'zining tub mohiyatini yo'qotmoqda. Bu esa ham og'zaki, ham yozma nutqimizga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qo'ymayapti. Ayni shu masala yuzasidan bugungi kun tilshunos olimlari mavjud til va yozuv shaklini o'z jozibasi bilan saqlab qolish, unga zarar yetkazadigan yoki ba'zi shakllarini yo'qolib ketishiga olib keladigan turli xil xurujlarning oldini olish borasida juda ko'p tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar. Hozirgi kunda zamonaviylashgan hamda texnologiyalar bilan hamnafas yashaydigan davrda, hayotni ijtimoiy tarmoqlarsiz: you tube, telegram, instagram, fecebook va shunga o'xshash tarmoqlarda amalga oshirilayotgan muloqotlarsiz tasavvur qilish qiyin. Albatta bunday texnologiyalarning yaxshi tomonlari juda ham ko'p, biroq bunday tarmoqlarda biz tilga berilayotgan juda katta zarbani kuzatishimiz mumkin: buni tarmoqlardagi yozishmalarda savodsizlik holatini uchrashi, turli kontentlarning umuman imlo qoidalarisiz yozilgani, tilimizdagi so'zlarni g'aliz shaklda so'zlashuvga moslashtirilgani orqali ko'rishimiz mumkin.[2; 218b] Haqiqatan ham bu nafaqat ona tilimizni rivoji uchun tinmasdan izlanishlar olib borayotgan tilshunoslarimiz, butun xalqimiz uchun ham fojiali holatdir.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan kishilik jamiyatimizning aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi. Shu jumladan boshqa xalqlar o'rtasi "O'zbekiston yoshlar yurti" deb ham yuritiladi. Bu shuni anglatadiki, ular bizning kelajagimizni yaratuvchilaridir, ular bizning bugunimizni tarix sahifalariga yozib, avlodlarimizga mukammal tarzda yetkazib beruvchi olimlar, tarixchilardir, ular bizning ona tilimizga yanada jilo berib asrlar davomida yashashi uchun o'z hissalarini qo'shadigan mustaqil shaxslardir. Lekin afsuski, savodsizlik, saviyasizlik, eng achinarlisi mana shunday ochiqchasiga namoyon bo'layotgan vaziyatlarga berparvolik, buyuk va porloq kelajagimizni barpo etishda katta bir to'siq sifatida qarshimizda namoyon bo'lmoqda. Ko'p yillardan buyon tilshunoslar, adabiyotshunoslar hattoki pedagoglarimiz ham mana shu masalaga yechim topish uchun izlanmoqdalar. Albatta, barchamiz savodxonlik bilimlarini maktab ostonasiga qadam qo'yganimizdan so'ng birinchi o'qituvchimizdan olishni boshlaymiz. Bu bizning yosh qalbimizga yoziladigan ilk bilimlardir. Boshlang'ich sinflarda biz umumiy savodxonligimizni oshirsak, yuqori sinf bo'lganimizdan so'ng bu jarayon murakkablashadi. 5-sinf ona tili darsligida biz orfografiya bo'limi bilan tanishamiz. Bu bo'limda imlo qoidalariga oid deyarli barcha ma'lumotlarni olamiz. Ammo butun orfografik qoidalarini faqatgina 5-sinf darsligida o'rganish murakkab masala. [5: 138b] Bu bo'limni 11-sinfgacha bo'lib-bo'lib, mukammal tarzda egallashimiz kerak deb hisoblayman. Chunki imlo bizning butun hayotimiz

davomida kerak bo'ladigan bo'limlardan biridir - xoh yuridik shaxs bo'laylik, xoh oddiy fuqaro. Ammo 11 yil maktabda faqat imlo qoidalarini o'rgatsa ham, biz o'zimiz buning qanchalik muhim ekanligini anglab yetmasak hech qanday samarali natijaga erisha olmaymiz. Ayrim jamiyatimiz a'zolari mana shu fikrni mag'zini anglab olisholmaydi. To'g'ri, biz eng tayanch savodxonlik bilimimizni maktab o'qituvchilaridan, darsliklardan o'rganamiz, biroq ota-onalarning ham bu masalada oz bo'lsada hissasi bor. O'qituvchi 45 minutlik dars davomida sinfdagi barcha o'quvchilarga birdek mavzuni yetkazib berishi mumkindir, lekin barcha o'quvchilarning o'zlashtirish qobilayati bir xil emas. Uyda ota - onalar farzandlari bilan alohida shug'ullanishi va darslarni o'zlashtirishga yordam berishi, imkoni bo'lsa amaliy shaklda namoyon qilib bersa, ana shunda kutilgan natijaga erishishimiz mumkin. Hozirgi kunda imlo bilan bog'liq xatolarni juda ko'p ucharatamiz: mamlakatimizning istalgan ko'chalaridagi reklamalarda, ijtimoiy tarmoqdagi turli xil kontentlarda, televideniyada efirga uzatilayotgan reklamalar, filmlar hattoki rasmiy habarlarda ham uchratayotganimiz juda achinarli holatdir. [2; 135b] Buni har safar ko'rib „*nega xato yozibdi?*“, „*nega to'g'irlamaydi?*“ deb o'ylashimiz yaxshi, ammo uni xato yozilganligini bilmasdan, e'tibor ham bermasdan yurishimiz botqoqlikka cho'kib borayotganimizdan darak beradi. Bunday imloviy xatolar yuzaga kelishiga asosiy sabablardan biri bu -aynan o'sha sohada ish yuritayotgan ishchi hodimlarning savodsizligi yoki so'zlarning imlo qoidalariga muvofiq qay tarzda yozilishini bilmasligidir. Bu jarayon orqali aksariyat insonlar vizul hotira orqali ko'rgan informatsiyalarini eslab qoladi va xato yozilgan so'zlarni xotirasida saqlab qoladi. Darhaqiqat, biz mana shunga o'xshash imloviy xatolar bilan yozilgan so'zlarni ko'p uchratishimiz va ularni xohlamagan holda xotiramizga joylashimiz orqali savodxonlik darajamiz saiflashib boraveradi.

Savodsizlikni avj olib ketishiga sabab bo'layotgan yana bir og'riqli nuqta bu- ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan kommunikatsiya usulidir. Biz kuzatishimiz mumkinki, deyarli barcha ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o'rtasidagi muloqot jarayonida bir nechta g'aliz halatdagi imloviy xatolar vujudga keladi. Masalan, turli xil so'z birikmalarini yoki so'zlarni qisqartirib yozish: *bilan* bog'lovchisini *bn* shaklida, *keyin* so'zini *kn* shaklida, *yaxshi* yoki *tushunarli* so'zini *Ok* shaklida yozish. Hatto shunaqa vaziyatlar ham uchraydiki, ba'zi yoshlardan ayrim so'zlarni yozilishini so'rashsa ular internet tili shakliga kirib qolgan shaklini ko'rsatishadi. Masalan, *tushunmoq* so'zini *chunmoq* deb. [1: 103b] Bu holatlar ayrim shaxslarga bir qaraganda oddiy holatdek ko'rinishi mumkindir, ammo kelajak avlodni savodsizlikka yetaklovchi katta ko'prik vazifasini bajarajak.

Mana shunday so'zlashuv uslublaridan foydalanish yoshlar o'rtasida qo'shtirnoq ichida zamonaviyligni ifodalaydi deb hisoblashadi, hatto ba'zida so'zlarni to'liq shaklda, imlo qoidalariga bilan yozadigan bo'sak zerikib qolishadi ayrim yoshlar bu so'zlarni to'liq o'qib chiqishdan. Bunday vaziyatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, aynan mana shu internet tili jamiyat o'rtasida juda ham oddiy holat va qo'shtirnoq ichida qulaylik bo'lib qoldi.

Shunga o'xshash salbiy omillar ta'siri ostida o'zbek tilining asl ma'no durdonalariga, til jozibadorligiga, hamda ma'no nozikligiga katta putur yetkaziladi. Biz ona tilimizning badiiyligini asrlar davomida saqlab qolishimiz va uni kundan kunga botqoqlikka g'arq qilish o'rniga boyitishimiz zarur. adabiy til me'yorlari hozirgi kunda faqatgina ilm - fanda, ilmiy ishlarda, turli xil o'quv jarayonlarida: maruzalar, seminarlar, konferensiyalar, ilmiy majlislar, ilmiy va siyosiy yig'ilishlarda ishlatiladigan bo'lib qolmayaptimi. Bu jarayon kundan kunga rivoj olib, ommalashib ketaverar ekan, o'z ona tilimizning asl mohiyatini va shaklini yo'qotib boraveramiz. Bu tilimizga, millatimizga nisbatan hurmatsizlikning bir ifodasi shaklida namoyon bo'laveradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak imloviy jihatdan tog'ri yozishimiz, tilimizni turli xil xurujlardan, qo'shtirnoq ichidagi zamonaviylashuvlardan, saqlashimiz eskicha fikrlash yoki shunchaki zerikarli emas, balki xalqimizni, millatimizni yorqin va porloq kelajak sari yetaklashdek sharaflil bir burchdir. Asrlar davomida turli xil to'siqlarni yengib kelgan haqiqiy o'zbek tilimizning adabiyiligini yosh avlodlarga buzilgan holatida emas, balki asl durdonalari

bilan , jozibasi-yu xilma - xilligi bilan yetkazib bera olishni uddalasak , vatanimiz uchun kichik bir vazifani bajargan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Atiyazov S., &Oqmonova S. ,, Ona tili darslarida internet tili tahlili (ijtimoiy tarmoqlarda so‘z va harflar imlosi yuzasidan)’ евразийский журнал математечикой теории и компьютерних наук .2023. 101-103- betlar.
2. Ekatorina T., &shirnova G. ,, til va imlo muammolari’’. Toshkent. OOO,,bookmany Print’’ . 2023. 133-136-betlar.
3. Komilova Z . ,, Internet tili va uslubi’’ . multidisciplinary Scientific journal.2023.218-bet.
4. Mavlonov Sh. ,, O‘zbek tilining izohli lug‘atida - ixtisoslashgan va soddalashgan til birikmalarining ifodasi’’. Talimda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari jurnali. 2024. 155-158-betlar